

BOG‘CHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISH TEXNOLOGIYASI

Ro‘ziboyeva Zarnigor

Andijon viloyat xo‘jabod tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi

Mirzakarimova Nilufar

Andijon viloyat xo‘jabod tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi

ANNOTATSIYA

Yurtimizda chet tillarni o‘rganishga qaratilgan katta e’tibor tufayli ingliz tilini o‘rgatishni ayni bog‘cha yoshidan boshlanishi til o‘qituvchilaridan katta mahoratni talab qiladi. Bog‘cha tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o‘rgatish murakkab jarayondir

Kalit so‘zlar: aqliy va jismoniy rivojlantirish, mashg‘ulot, signal elementi, iliqlashtiruvchi mashlar, qiziqarli o‘yin.

2017 - yilda Respublikamiz Prezidenti tashabbusi bilan maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish maqsadida maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil qilindi. Yangi vazirlikning asosiy vazifalari bosqichma-bosqich barcha bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olishdan iboratdir.

Vazirlik tashkil etilganidan so‘ng ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Shunga asosan hozirda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolajonlarimizga chet - tillarini o‘rgatish ham yo‘lga qo‘yilgan.

Bog‘cha tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o‘rgatish, maktab o‘quvchilariga ingliz tili o‘qitishdan tubdan farq qiladi. Shu sababli, bog‘cha tarbiyalanuvchilariga chet tili

o‘qitishda oldindan maxsus tayyorgarlik zarurdir. Quyida biz shu bilan bog‘liq bir qancha tavsiyalarni bermoqchimiz:

1.Ingliz tili darslarini odatga aylantiring.

Bu sizga bolalarning qiziqishiga, bu mashg‘ulotni orziqib kutishiga imkon yaratadi. Shuningdek, har bir mashg‘ulotning boshlanishida bolalarga signal elementini o‘rgatish lozim. Masalan, tarbiyachi uch marta chapak chalsa, yoki biror inglizcha so‘zni uch marta takrorlasa, bu ingliz tili mashg‘uloti boshlanishidan darak berishi lozim. Bu birinchi navbatda, bolalarni qiziqtiradi, ular ham maroq bilan chapak chaladi. Ikkinchi navbatda, bolalarni ingliz tili darslariga tayyorlaydi diqqatni to‘imkonini beradi. Shuningdek, qisqa tanafuslarni ham esdan chiqarmaslik muhim ahamiyatga egadir. Bu jarayonda bolajonlar iliqlashtiruvchi mashnlarni bajaradilar, masalan, "Butterfly" she‘rini harakatlar asosida aytishadi.

2.O‘yinlarga asoslangan mashg‘ulot.

Bog‘cha tarbiyalanuvchilarini o‘qitishdagi eng qiyin vazifa bu guruhda tartib-intizomni saqlashdir. Ammo bu degani qattiqqo‘llik bilan bunga erishish mumkin degani emas, albatta. Bolalarni bo‘ysundirish va yaxshi tarbiyachi bo‘lish o‘rtasidagi muvozanatni saqlashning eng zo‘r usuli bu mashg‘ulotlarda turli o‘yinlardan foydalanishdir. Ana shunday o‘yinlardan biri bu “Telefon” o‘yinidir. Bunda bolalar bir qator bo‘lib turib olishadi. Birinchi turgan bolaning qulog‘iga tarbiyachi yangi o‘rganilgan so‘zlardan birini aytadi, u bola esa ikkinchi turgan bolaning qulog‘iga eshitgan so‘zini shivirlab aytadi.

3.She‘rlar va qo‘shiqlardan foydalanish.

Bog‘cha tarbiyalanuvchilariga ingliz tilidagi Grammatik qoidalar va yozuv me‘yorlarini o‘zlashtirish shart emas albatta. Ular faqat so‘zlarning talaffuzi hamda ma‘nosini yaxshi o‘zlashtirishsa bo‘lgani. Bunda esa bizga qo‘shiqlar va she‘rlar yordam beradi. Ayniqsa, bu she‘rlarning asosiy mazmuni alifbo, raqamlar, shakllar, mevalar va shu kabi mavzularga asoslangan, talaffuz qilishga oson bo‘lsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi. Bu kabi she‘r va qo‘shiqlar hozirda bir qator internet saytlaridan joy olgan. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tishimiz ham lozimki, animatsion shakldagi video-

roliklar ham mashg‘ulot mobaynida foydalanilsa, o‘z samarasini bermay qolmaydi. Tarbiyalanuvchilar bunga juda qiziqish bildirishadi. Quyida ana shunday qo‘shiqlar va she‘rlardan bir nechtasini sizga taqdim qilmoqchiman.

Hop---hop Stop.

Stand up

Hands up

Hands on hips

Sitdown.

Stand up

Hands to the sides

Bend to the right, bend to the left

Hands on hips,

1,2,3 hop,

1,2,3 Stop.

Head Shoulders Knees and Toes

Head, shoulders, knees and toes,

Knees and toes.

Head, shoulders, knees and toes,

Knees and toes.

And eyes, and ears, and mouth, and nose.

Head, shoulders, knees and toes,

Knees and toes.

Bolalar qo‘shiq bo‘layotgan paytda “Hot potatoe” o‘yinini o‘ynashlari ham mumkin. Bu juda energetik o‘yin bo‘lib, bolalarni mashg‘ulotga yanada jalb qiladi. Buning uchun bir kichkina koptok kerak bo‘ladi. Qo‘shiq ketayotgan paytda bolalar koptokni-ya’ni qaynoq kartoshkani bir biriga irg‘itishadi. Musiqa to‘xtagan paytda koptokcha kimda qolgan bo‘lsa, shu bolakay inglizcha **gapirishi kerak bo‘ladi.**

Masalan:

1. O‘zini tanishtirishi
2. Sevimli hayvon, ovqat, meva, sabzavot yoki sevimli qo‘shiq aytishi

Ko‘rib turganingizdek, bolalarga ingliz tilini o‘rgatish juda katta sabr va bardosh talab qiladi. Ammo, agar biz qiziqarli o‘yinlardan foydalansak, ishimiz yanada yengil kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Т.: 2012.
2. Хошимов Ў., И. Ёқубов. Инглиз тили ўқитиш методикаси Т.: 2003 й.
3. Рогова Г.Б, Рабинович Ф.М., Сахарова Т.Е. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. Москва: Просвещение, 1991.

